

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ERTAK JANRINI O'QITISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH

Adizova Nodira Baxtiyorovna

*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, boshlang'ich ta'lim kafedrasida dotsenti. Buxoro davlat
pedagogika instituti*

<https://orcid.org/my-orcid?orcid=0000-0002-0469-1705>

Nematova Malika Hikmatovna

Buxoro davlat pedagogika instituti 1-kurs magistri

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinflarda ertak janrlarini o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanishning ahamiyatini ochib beradi hamda maqolada amaliy misollar keltirilgan bo'lib, ular orqali boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ertaklarni o'qitishni yanada samarali qilish imkoniyatlari ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, interfaol metod, innovatsion, o'qituvchi, ma'naviyat, janr, qadriyat, ertak, rivoyat, afsona,

Kirish. Shu kunlarda, madaniyat sohasida jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yoshlarimizni haqiqiy o'zlikni anglashga o'rgatish, ularning mafkuraviy olamini sog'lom shakllantirish bo'yicha oldimizda muhim vazifalar turganini unutmagan holda milliy qadriyatlarni o'zida saqlab kelayotgan ertak, rivoyat, afsonalarni yoshlar ma'naviyatiga singdirish muhim oldimlashlarimizdan biri hisoblanadi. Bu kabi milliy adabiyotimizning na'munalarida badiiy tafakkurining eng sara badiiyati yashiringan [1.4].

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni ertak janri bilan tanishtirish, ularning tasavvurini kengaytirish va badiiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ertaklar nafaqat bolalarga qiziqarli hikoyalar taqdim etadi, balki ularga axloqiy saboqlar beradi va turli hayotiy vaziyatlarga tayyorgarlik ko'rishda yordam beradi. Shu sababli, o'qituvchilar ertaklarni o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanish orqali dars jarayonini yanada samarali qilish imkoniyatiga ega.

METODLAR. Ertaklar dunyodagi boshqa xalqlar og'zaki ijodida keng tarqalganidek, o'zbeklarda ham eng ommaviy janrlardan biri sifatida turli viloyatlarimizda yashaydigan yurtdoshlarimiz tomonidan sevib aytib kelingan. [4.107-b].

Ertaklar – bolalarning tasavvurini shakllantiruvchi, axloqiy qadriyatlarni o'rgatadigan va madaniy merosni uzatishda muhim rol o'ynaydigan adabiy janrdir. Boshlang'ich sinflarda ertaklarni o'qitish jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish, nafaqat bolalarning bilimini oshirish, balki ularning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda ham samarali vosita hisoblanadi.

Ertaklarni o'rgatishda interfaol metodlardan foydalanish ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Interfaol metodlar o'quvchilarni faol ishtirok etishga, o'z fikrlarini ifoda etishga va muloqot qilishga rag'batlantiradi. Quyida ertaklarni o'rgatishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan ba'zi interfaol metodlar keltirilgan:

1. Rol o'ynash: O'quvchilar ertakdagi qahramonlarni ifodalash uchun rol o'ynashlari mumkin.

Bu usul orqali ular hikoyaning hissiyotlarini chuqurroq his qilishadi va qahramonlarning xarakterini yaxshiroq tushunishadi.

2. Kichik guruhlarda muhokama: Ertakni o'qigandan so'ng, o'quvchilar kichik guruhlarga bo'linib, hikoyaning asosiy g'oyalarini muhokama qilishlari mumkin. Bu usul fikr almashish va turli nuqtai nazarlarni tinglash imkonini beradi.

3. Ertak yaratish: O'quvchilardan berilgan motiv yoki qahramon asosida yangi ertak yozishni so'rashingiz mumkin. Bu ijodiy yondashuv ularning tasavvurini rivojlantiradi.

4. Vizual materiallar: Ertakning asosiy voqealarini ko'rsatadigan rasmlar yoki videolar yordamida darsni jonlantirish mumkin. O'quvchilar ushbu vizual materiallar orqali hikoyani yanada yaxshi tushunadilar.

5. Sahnalashtirish: O'quvchilar ertakdan bir nechta sahnalarni tanlab olib, ularni sahnalashtirishi mumkin. Bu ijodiy jarayon ularga ertakning tuzilishini va mazmunini yaxshilab tushunishga yordam beradi.

6. Savol-javob sessiyalari: Dars oxirida savollar berish orqali o'quvchilarning ertakni qanday tushunganliklarini aniqlash va ularning fikrlarini tinglash imkoniyatini yaratishingiz mumkin.

7. Interaktiv texnologiyalar: Onlayn platformalar yoki ilovalar yordamida interaktiv darslar o'tkazish, masalan, kahoot yoki quizizz kabi vositalardan foydalanish orqali o'yin shaklida bilim olish imkoniyatini yaratishingiz mumkin.

Bu metodlar o'quvchilarning diqqat-e'tiborini oshiradi va dars jarayoniga faol ishtirok etishini ta'minlaydi, shuningdek, ular uchun ertaklarning mazmuni yanada qiziqarli bo'ladi.

Quyida bir qator interfaol metodikalarning tavsifi va mohiyatini keltiramiz:

"Charxpalak" metodi – O'quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarini baholash, yakka va guruhlarga ishlashga, boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga, ko'p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o'rgatadigan metodlardan biri. Boshlang'ich sinf dars mashg'ulotlarining barcha turlarida dars boshlanishida yoki dars oxirida yoki o'quv predmetining biror bir bo'limni tugallaganda, o'tilgan mavzularni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash maqsadlarida qo'llaniladi.


"Yelpig'ich" metodi-muammo xarakterdagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir yo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalarda muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi. Ushbu metod orqali o'quvchi mavzu yuzasidan xulosa chiqarishni o'rganadi.

Boshlang'ich sinf darsliklarini tahlil qilish natijasida, o'quvchilarda ko'proq nutqiy kompetensiyalikni rivojlantirishga qaratilganini kuzatishimiz mumkin. Boshlang'ich sinflarda asosan Klaster metodi, Bumerang metodi, Yagona davra metodi, T metodi, Suhbat metodi kabi metodlar bilan o'quvchilar mavzuni yanada mukammal tushunishiga imkon beradi.

Yuqorida nomi ko'rsatilgan metodlar dars jarayonida o'quvchini mavzuni aniq o'rganishiga yordam beradi. Masalan: 3-sinf 71-betdagi "G'aroyib tanlov" ertak Klasster metodi orqali o'tganimizda an'anaviy dars metodiga nisbatan bu metod yaxshiroq samara berganiga guvoh bo'ldik.

3-sinf O'qish savodxonligi

"G'aroyib tanlov" ertagini mukammal o'rganishga yordam berishi uchun "Klasster usuli" dan foydalangan holda ijobiy va salbiy xususiyatlarini sanadik. Bunday usul orqali dars o'tganimizda an'anaviy dars metodiga nisbatan bu metod yaxshiroq samara berganiga guvoh bo'ldik chunki interfaol metodlarni ertak janrida qo'llash nafaqat ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi, balki bolalarda madaniy qadriyatlarni shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Bu usullar tajribali pedagoglar tomonidan ertaklarni yanada jonlantirishga imkon yaratadi va bolalarning bilim olish jarayonini qiziqarli hamda samarali qiladi.



Xulosa va tavsiyalar. Bunday yondashuvlar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi va ularning hayotiy tajribalariga asoslangan holda bilim olishlariga yordam beradi. Shuningdek, bu usullar bolalarning tasavvurini kengaytiradi va ularni ertaklar dunyosiga chuqurroq kirishga imkoniyat yaratadi. Natijada, innovatsion metodlardan foydalanish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida ertak janriga bo'lgan qiziqishni oshirish va ularning hikoya qilish qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir (O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruza) .4 b
2. Afzalov M. O'zbek xalq ertaklari haqida. – Toshkent: Fan, 1964. – 68 b.;
3. Asqarova O'. Mo'minova D. O'qish darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Namangan. 2019
4. Madayev O. Sobitova T, Xalq og'zaki poetik ijodi.-Toshkent.: "Sharq", 2010 -yil 17-29 betlar
5. Safarov O. O'zbek xalq og'zali ijodi.-Toshkent.: "Musiq" 2010- yil.7-9 bet
6. Bakhtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lyubat Ilkhomovna. "Таълим Муассасаларида Таълим-Тарбия Жараёнларида Интерфаол Методлардан Фойдаланишнинг Ҳозирги Кундаги Ҳолати." Spanish Journal of Innovation and Integrity 5 (2022): 330-333.
7. Adizova, Nodira, and Uktamova Mohinur. "Interfaol mashqlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirish" E Conference Zone. 2023.
8. Baxtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "Faol ta'lim asosida darslarni tashkil qilish–ta'lim samaradorligini oshirish omili sifatida." PEDAGOGS jurnali 1.1 (2022): 52-53.
9. Bakhtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lubat Ilhomovna. "Basic principle of personalized educational technology." barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlaYN ILMIY JURNALI 2.10 (2022): 296-298.